

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI”
mavzusidagi xalqaro konfrensiya**

**“ZAMONAVIY LEKSIKOGRAFIYA, TIL KORPUSLARI VA TURKIY
TILLAR PLATFORMALARINI YARATISH MUAMMOLARI”
nomdagi sho‘ba materiallari**

(2021-yil 18-oktabr)

Toshkent – 2021

MASHINA TARJIMASI LINGVISTIK TA'MINOTI UCHUN O‘ZBEK↔INGLIZ SINONIMLAR BAZASINI YARATISH MASALASI

Abjalova Manzura Abdurashetovna*

Salomov Abbas**

Annotatsiya. Ma'lumki, har qanday til uchun sinonim so'zlar nutqni go'zal, ravon, uslubiy g'alizliklarsiz shakllantirishda, tilning jozibadorligini bor bo'y basti bilan namoyon qilishda unumli qo'llaniladigan ma'nodosh so'zlar hisoblanadi. Sinonimlar yordamida matnda muayyan so'zning takror qo'llanilishining oldi olinadi. Ayniqsa, sinonimlar mashina tarjimasi uchun eng muhim omil sanaladi. O'zbek↔ingliz tili mashina tarjimasi uchun ma'nodosh so'zlarning lingvistik bazasini yaratilishi so'zning muqobil ma'no shaklini tanlashga xizmat qiladi. Chunki avtomatik mashina tarjimasi jarayonida ma'nodosh so'zlar bilan aloqador xatolarga yo'l qo'yilmasligi uchun sinonimlar bazasini yaratish masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

Mazkur maqolada o'zbek↔ingliz tillari tarjimon dasturi uchun sinonimlar bazasini yaratish omillari xususida so'z yuritildi.

Kalit so'zlar: *sinonimlar, mashina tarjimasi, lingvistik baza, o'zbek↔ingliz tillari, .*

Abstract. It is well known that synonyms are words that coincide or are close in meaning to another word, which are effectively used in the formation of speech expressively, without stylistic difficulties for each language. Therefore, synonyms play one of the main roles in machine translation. Creating the base of Uzbek↔English synonyms can help machine translation in word choice. Because during the machine translation it is the most important factor that not to choose the word that the meaning is not suitable for the context of the text. In that case building the base of synonyms of Uzbek and English synonyms is a significant work which needs to be done.

This article discusses the factors for creating a database of synonyms for the Uzbek↔English translation program.

Keywords: *synonyms, machine translation, linguistic base*

* Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). manzura_ok@mail.ru ORCID 0000-0002-1927-2669

** Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Kompyuter lingvistikasi mutaxassisligi 1-kurs magistranti abbosbeksalomov98@gmail.com

Barchamizga ravshanki, “XXI asr axborot-texnologiyalari asri” degan atama anchayin kam qo‘llanilib, uning o‘rniga “mashina tarjimasini”, “kompyuter lingvistikasi” kabi atamalar ko‘proq qo‘llanilmaoqda. Ayniqsa, tilshunoslik sohasida bu kabi terminlarga tez-tez duch kelyapmiz. Sababi shundaki, tabiiy tilni rivojlantirish, unda yaratilgan barcha yozma va og‘zaki ma’lumotlardan tez va samarali foydalanish uchun avvalambor bu tilni kompyuter tiliga aylantirishimiz kerak bo‘ladi. Bu jarajonda esa biz istaymizmi, yo‘qmi tarjimon dasturlarga chuqur ehtiyoj sezamiz. Lekin har bir tilda mukammal tarjima ishlarini amalga oshirish uchun lingvistik baza boy ko‘rinishda bo‘lishi lozim. Ayniqsa, tarjimada ma’no va mazmun to‘la saqlanib qolinishi, so‘zlarning takrorlanishi oldini olish va boshqa barcha uslubiy xatolardan xolis bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun mashina tarjimasini amalga oshirishda sinonimlarning leksikografik bazasi kerak.

Barcha tillardagi kabi o‘zbek tilida ham mashina tarjimasini sohasida ancha ulkan ishlarga qo‘l urilgan va amalga oshirilgan. Ammo tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, shu kunga qadar o‘zbek↔ingliz sinonimlarining leksikografik bazasini yaratish hamon dolzarbligicha qolmoqda.

Mashina tarjima bo‘yicha dastlabki g‘oyalar ingliz olimi Charlz Bebbidj tomonidan 1836 - 1848-yillarda ilgari surilgan. Uning fikricha, mexanik-elektron mashinalar tillar o‘rtasidagi struktur o‘xshashliklar asosida kodlashtirilgan avtomatik tarjimini amalga oshirishi mumkinligini e’tirof etgan bo‘lsa, Rossiyada mashina tarjimasini yo‘nalishining otalari D.Yu.Panov, A.A.Lyapunov, I.S.Muxinlar sanaladi. Shundan so‘ng O.S.Kulagina, I.A.Melchuk, Y.A.Motorin, Yu.N.Marchuk, R.G.Piotrovskiy kabi olimlar ularning izdoshlari sifatida avtomatik tarjima tizimini rivojlantirdilar. O‘zbekistonda ham tarjima nazariyasi xususida dadil fikrlar aytila boshlandi. Asqad Muxtor, Jumaniyoz Sharipov, G‘aybulla Salomov, Ninel Vladimirovalarning tarjima nazariyasidan bahs yurituvchi risola va maqolalari nashr qilindi, shuningdek: J. Bo‘ronov, E. Aznaurova, Q. Musayevlarning darslik va monografiyalari, A. Abduazizov, N. Komilov, M. Sulaymonov, R. Fayzullayeva, Y. Egamova, I. Mirzayevlarning dissertatsiya va maqolalarida tarjimaning lingvistik nazariyasi xususidagi ba’zi fikrlar davom ettirildi. Mashina tarjimasining tilshunoslikdagi ahamiyati haqida tilshunos olim A.Rahimovning fikralari amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Demak, mashina tarjimasini – bir tabiiy tildan ikkinchi tilga matnini raqamli hisoblash mashinalari va kompyuterlar yordamida tarjima qilish. EHM va kompyuterlar uchun dasturlar tuzish, matematik lingvistika va amaliy lingvistika

kabi yo‘nalishlar bilan chambarchas bog‘liq. Mashina tarjimasini yaratish IT mahsuli hisoblanadi. Mashina tarjimasini g‘oyasini birinchi bo‘lib fransuz ixtirochisi J. Arsruni va undan mustaqil ravishda rus ixtirochisi P. P. Smirnov-Troyanskiylar 1933 yil ilgari surishgan.

Albatta, o‘zbek tilida ham, ingliz tilida ham sinonimlar lug‘ati ishlab chiqilgan. O‘zbek tilidagi sinonimlarning izohli lug‘ati dastlab Azim Hojiyev tomonidan 1974-yilda yaratilgan. Ingliz tilining sinonimlar lug‘ati esa James Leslie tomonidan 1806-yilda “Ingliz tilidagi sinonim so‘zlar va texnik atamalar” nomi ostida nashr etilgan. Keyinchalik esa George Grabb tomonidan sinonimlarga bog‘liq “Ingliz tilida sinonim so‘zlar izohi” kitobi 1818-yilda nashrdan chiqqan. Ammo har ikkala tildagi sinonim so‘zlarning ma‘no jihatdan bir-biriga muvofiqlashtirilgan hamda darajalab chiqilgan leksikografik bazasini yaratish fan uchun dolzarbligicha qolmoqda.

Biz bilamizki, muayyan til tarkibidagi so‘zlar vaqt o‘tishi bilan yangilanib turadi. Chunki zamon talabi bilan ayrim so‘zlar eskiradi va talaffuzdan chiqib ketishi, yoki mutalabo yangi olinma so‘zlar paydo bo‘lishi mumkin. Shu sababli ham tillarning so‘zga aloqador qismlari boyitilib, yangilanib borishi kerak.

O‘zbek hamda ingliz tillarida mashina tarjimasini uchun sinonimlarning leksikografik bazasini yaratishda qilishi kerak bo‘lgan ishlar ketma ketligi:

1. O‘zbek tilidagi ma‘nodosh so‘zlarni jamlash. Masalan:

katta	ulkan	bahaybat
-------	-------	----------

2. Ingliz tilidagi ma‘nodosh so‘zlarni jamlash.

big	huge	great
-----	------	-------

3. Leksik sinonimlarning Ingliz tiliga aynan tarjimasini muvofiqlashtirish.
4. To‘plangan sinonimlar asosida ularni semantik darajalab chiqish.
5. O‘zbek-Ingliz sinonimlar lug‘atini yaratish.

Mazkur tadqiqot ishining nazariy ahamiyati shundaki, mulohazalar tahlillar va xulosalar kompyuter lingvistikasi va mashina tarjimasini fanlarini o‘tish jarayonida qo‘shimcha ilmiy va uslubiy qo‘llanma sifatida xizmat qiladi. Amaliy ahamiyati sifatida esa quyidagilarni aytish mumkin:

O‘zbek↔ingliz tillaridagi sinonim so‘zlar bazasi ishlab chiqiladi.

O‘zbek↔ingliz juftliklari avtomatik tarjima dasturi yaratiladi

Xulosa qilib aytganda, mashina tarjimasini uchun o‘zbek↔ingliz sinonim so‘zlar lingvistik bazasini yaratish kompyuter lingvistikasi fani rivojiga ancha katta hissa qo‘shadi. Qolaversa, bu tarjima dasturining boshqa online tarjima

dasturlaridan farqi tarjimaning aniqligi, har qanday uslubiy va so‘z tanlashdagi xatolardan holi ekani bilan farqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abjalova M. O‘zbek tili Milliy korpusida sinonimayzer yoxud sinonimizatorni yaratish masalasi // O‘zbek milliy va ta’limiy korpuslarini yaratishning nazariy va amaliy masalalari / Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2021-yil 7-may. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 2021. – 330 b. – B. 38-40.

2. Абжалова М. Синонимайзер (синонимизатор) в образовательной корпусе узбекского языка. // TurkLang – 2021: Turkiy tillarni kompyuterda qayta ishlash IX xalqaro konferensiyasi.

3. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2011. – B. 72.

4. Orifjonova Sh. O‘zbek tilida lug‘aviy graduonimiya: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 1996.

5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Mashina_tarjimasi

6. Xudoyberdiyeva L.S. O‘zbek tilida nominativ birliklarning darajalanishi: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2003